

201

Alisher Navoiy

soni/jaai

O'zbekiston

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 24 (67241)  
2019-yil 17-iyun

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

FAN OLIMPIADASI - 2019



# KIRISH IMTIHONISIZ TALABA BO'LISHDI

2-bet



USHBU SONDA:

PREZIDENT  
MAKTABLARIGA  
TALABGORLAR  
15000DAN ORTDI

3-bet

BU  
YILGI  
YOZ  
BOSHQACHA...

4-bet

KELING,  
FUTBOL  
O'YNAYMIZ!

7-bet

# KIRISH IMTIHONISIZ TALABA BO'LIHDI

nafar o'quvchi (20 nafar 1-o'rin, 18 nafar 2-o'rin va 15 nafar 3-o'rin) g'olib deb topildi. Umumjamoa hisobida

Aziz o'quvchilar, yakunlangan 2018-2019-o'quv yili davomida yurtimizdagi barcha umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida fan olimpiadalarining turli bosqichlari bo'lib o'tganidan xabaringiz bor. Bugun esa umumta'lim fanlari bo'yicha respublika olimpiadasining yakuniy bosqichi g'oliblari ham aniq bo'ldi. Ularga ko'pchiligingiz havas qilayotganingiz ham bor gap. G'oliblar safidan o'rin olgan bu o'g'il-qizlarni haqiqiy bilimdonlar, aql-u zakovat egalari, deya alqagingiz keladi.

Respublika olimpiadasining yakuniy bosqichida 1059 nafar o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, natijalarga ko'ra 18 ta fandan 53

Asadbek ODILOV, Farg'ona viloyati, Quvasoy shahridagi 1-DIUM o'quvchisi, 1-o'rin sohibi:



Maktabimiz matematika va xorijiy tillarni chuqurlashtirib o'rgatishga ixtisoslashgan. Barcha maktabdoshlarim qatori men ham ingliz tilini puxta o'rganayotganim tabiiy hol. Bolaligimdan diplomat-iqtisodchi bo'lishni orzu qilaman. Lekin xorijiy tillarni bilish hech bir kasb

Ozoda ABDURAHMONOVA, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi, 3-o'rin sohibasi:



Bolaligimdan o'z haq-huquqlarini talab qiluvchi, haqiqatg'o'y qizaloq bo'lganman. Hatto, do'st-dugonalarimni ham kimdir nohaq xafa qilsa, jim qarab tura olmasdim. Shu bois bo'lsa kerak, har yili meni sinf, maktab sardori etib saylashardi. Yuqori sinflarda bizga huquqshunoslik fani o'tila boshlaganida esa bu fanga juda qiziqib qoldim va uni puxta o'rgana boshladim. Bu fanga bo'lgan qiziqishimni sezgan, kelajakda huquqshunos bo'lish orzusida ekanimni bilgan ustozlarim menga fan olimpiadasida qatnashishni maslahat berishdi. 8-sinfda o'qiyotganimda ilk bor ana shu olimpiadada qatnashgan edim. O'shanda hatto tumanimizdagi xalq ta'limi bo'limi xodimlari, xususan, Bibisora opa Hasanova ham menga alohida e'tibor ko'rsatib, barcha sharoitlarni

yaratib berishgan edi. Maktabimizdagi barcha ustozlarimiz, xususan, sinf rahbarimiz Shoira opa Jalilova bizni eng namunali, a'lochi, intiluvchan o'quvchi bo'lishga chorlashardi. Bu chorlov muvaffaqiyatlar va katta imkoniyatlar sari boshlashi rost ekan. Mana, men bugun ana shunday ulkan yutuqqa erishib turibman. Bunda, albatta, Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchimiz Sarvar aka Nishonovning saboqlari asqotdi.

Men yana ingliz va koreys tillarini o'rganishga ham juda qiziqaman. Chunki o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lish uchun til bilishning ahamiyati nechog'li muhim ekanligini yaxshi bilaman.

Madina SUNNATOVA, Sirdaryo viloyati, 1-xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 11-sinf o'quvchisi, 1-o'rin sohibasi:



Yana bir quvonchli xabar: Madina maktabni oltin medal bilan bitirdi.

Fransuz tili fani o'qituvchimiz Odil Mingjigitov ilk mashg'ulotimizda bu tilda ravon gapirib dars o'tganlarida, menda fransuz tilini o'rganishga havas uyg'ongandim. Fransuz alfavitini puxta o'rganib, matnlarni hijjalab o'qiy boshladim. Kuniga 20 tadan yangi so'zlarni yod olishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim. Yod olgan so'zlarim yordamida gap, so'z birikmalari tuzdim. Ustozim xatolarimni to'g'rilab borardi. Yil yakunida bu fan bo'yicha o'tkaziladigan «Bilimlar bellashuvi»da qatnashib, o'rganmalarimni sinovdan o'tkazardim, g'oliblar safidan o'rin egallardim. Yuqori sinflarda esa fan olimpiadalarida faol qatnasha boshladim. Bu yil ham astoydil harakat qildim. G'olib bo'lganimni eshitgach, ko'zimdan sevinch yoshlari quyilib keldi. Maktab rahbarimiz Saodat Fayziyeva, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Zulfira Ahmedova, xorijiy tillar bo'yicha direktor o'rinbosari Feruza Ahmedova meni birinchilardan bo'lib tabriklashdi. Ota-onam gullar bilan qutlashdi. Sirdaryoga qanot chiqarib uchdim, go'yo. Kelib, birinchi navbatda diplomim va chiroyli guldastam bilan ustozim Odil akaning yoniga oshiqdim. U kishi, barakalla, ishonchimni oqlading, deya meni g'oliblik bilan tabrikladilar. Barcha uka va singillarimga, puxta bilim oling, tinmay izlaning va albatta, bu mehnatlaringiz o'z natijasini beradi, deb qolaman. Kelajakda diplomat bo'lish orzum bor. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga o'qishga kirmoqchiman. Yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan yetuk mutaxassis bo'lishni o'z oldimga maqsad qilganman.

Hilola HAKIMOVA, Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 60-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi, 1-o'rin sohibasi:



8-sinfda Davlat va huquq asoslari fanidan ustozim Rustam aka Boboxonov dars o'ta boshladilar. Ustozimiz o'z huquq va burchlarimizni puxta o'rgatishga qaratilgan bu fanni juda qiziqarli tarzda o'tardilar. Shuning uchunmi, garchand murakkab bo'lsa-da, bu fanga qiziqishimiz kuchaygan. Ustozning har bir sabog'ini barchamiz diqqat bilan tinglardik. Konstitutsiya moddalarini sharhlashlari, huquqbuzarlikka oid vaziyatlarning obyektiv va subyektiv sabablariga oid fikrlari, qo'ying-chi, ustozning Davlat huquqi va asoslari nazariyasini puxta bilishlari barchamizni hayratga solardi, o'qituvchimizga nisbatan hurmatimizni oshirardi. Ustozimning maslahati bilan 8-sinfda bu fandan o'tkazilgan olimpiadada qatnashdim va viloyatda g'olib bo'lib, respublika bosqichida ham ishtirok etdim. Bor bilimimni ishga solib, yozma ish hamda test savollariga javob berishga puxta tayyorgarlik ko'rdim. Natija esa yomon bo'lmadi. Ustozlarim, ota-onam ishonchini oqladim. Menga olimpiada g'olibi sifatida diplom va oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari va qo'shimcha imtihonlarsiz kirish imtiyozini beruvchi guvohnomani tantanali ravishda topshirishganda, bu imkoniyatni o'z bilimim evaziga qo'lga kiritganimdan behad quvondim. Qumqo'rg'on temiryo'l vokzalida oyijonim, bobojonim, buvijonim, tuman xalq ta'limi bo'limi boshlig'i, uslubchilar va maktabdoshlarim guldastalar bilan kutib olishganida, quvonch ko'z yoshlarimni yashira olmadim. Maktab rahbarimiz Bahrom aka Ulug'ov meni mehr bilan tabriklab: «Barakalla, senday bilimlilar safi ko'payaversin, Qumqo'rg'onning dong'ini tarataveringlar!», deya alqadilar. G'olib bo'lganim uchun ustozim Rustam akadan cheksiz minnatdorman. Toshkent davlat yuridik universitetida o'qib, yurtdoshlarimning huquq va burchlarini himoya qilish niyatidaman.

Biz ham «Tong yulduzi»ning ko'pming sonli o'quvchilari nomidan fan olimpiadalarini g'oliblarini samimiy muborakbod etib: «Ilm cho'qqilarini zabt etavering, bilimdonlar!» deb qolamiz.

Nodira NAZAROVA, Sayyora QODIROVA

## PREZIDENT MAKTABLARIGA TALABGORLAR 15000 DAN ORTDI

**Kabaringiz bor, joriy yilda Toshkent, Nukus, Xiva va Namangan shaharlarida Prezident maktablari ochiladi. 1-iyundan boshlab mazkur ta'lim dargohiga hujjatlar qabul qilinmoqda.**



Qabulning ilk kunidayoq 786 ta hujjat topshirilganidan bilish mumkin, bu maktablarda tahsil olishni istaydigan o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Ma'lumot o'rinda aytish kerakki, talabgorlar faqat o'zlariga yashayotgan hududdagi Prezident maktabiga 22-iyungacha qadar hujjat topshirishlari mumkin. Hujjatlar onlayn tarzida Prezident maktablarining rasmiy sayti (pm. xtv. uz) orqali ham qabul qilinayotgani ko'pchilikka qulaylik yaratmoqda.

2019-2020-o'quv yilida ochiladigan Prezident maktablariga o'quvchilar 5-sinfidan qabul qilinib, haftasiga besh kunlik internat shaklida ta'lim olishadi. O'quv dargohida STEM yo'nalishi bo'yicha aniq fanlar Cambridge International dasturi asosida ingliz tilida olib boriladi. 2020-2021-yillarda boshqa viloyatlarda ham shu nomdagi maktablar qurilib, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Prezident maktablarining asosiy maqsadi ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar iqtidorini yuzaga chiqarish, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Biz ham yurtimizda iqtidorli, salohiyatli yoshlar ko'payishidan umidvormiz.

*O'z muxbirimiz*

## QO'QONDA FESTIVAL BO'LADI

**Mamlakatimiz Prezidentining «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida»gi Qarori asosida joriy yilning 10-15-sentabr kunlari Qo'qonda xalqaro hunarmandchilik festivali bo'lib o'tadi.**



Qo'qon qadimdan o'zining nafis san'ati, mashhur hunarmandchilik maktabi va adabiy muhiti bilan nom qozongan. Dahmai shohon, Jome masjidi, Norbo'tabiy, Miyon hazrat, Dasturxonchi madrasalari, Madarixon dahmasi, Xudoyorxon o'rdasi va boshqa ko'plab yodgorliklar

shahrimizning tarixiy qiyofasini aks ettirib, husniga husn bag'ishlab turibdi.

Muhtaram Prezidentimiz shahrimizga tashrif buyurgan chog'larida muzey filialini ta'mirlashga doir ko'rsatmalar bergandilar. Tashrifdan so'ng, muzey zallari zamon talablari darajasida ta'mirlandi. Bino atrofi obodonlashtirildi. Muzeyning namoyishgoh zallari kengaytirilib, zarur texnik vositalar bilan jihozlandi.

Shahrimizga tashrif buyurayotgan xorijlik sayyohlar Xudoyorxon o'rdasini tomosha qilmasdan ketmaydi. Hozirgi kunda usta naqqoshlarimiz Islom Karimov va Abror Qosimov o'zlariga yasagan buyumlari bilan shahrimizda bo'lib o'tadigan Hunarmandchilik festivalida qatnashish uchun qizg'in hozirlik ko'rishmoqda. Ular bu jarayonga maktab o'quvchilarini ham jalb etishgan. Yoshlar hunar bilan bir qatorda shahrimiz tarixini ham puxta o'rganishga bel bog'lashgan.

**Yoqutxon SODIQJONOVA,**  
Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 22-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**Yaqinda bo'lib o'tgan «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimida men ham qatnashdim.**

## BIZ XITOIY TILIDA SO'ZLASHDIK

Chunki o'tgan yili tanlovning insholar yo'nalishida g'olib bo'lgan edim-da. Shuning uchun bu yilgi tengdoshlarimni qutlash va bayramda qatnashish uchun istirohat bog'iga bordim. Tad-

birga kelgan mehmonlar

orasida Xitoy Xalq Res-

publikasining O'zbe-

kistondagi elchixonasi

vakillari ham bor edi.

Xitoy tilini o'rganishga

juda qiziqqanim bois

elchixonasi vakili bilan

suhbatlashib, bu tilni

qay darajada o'rgan-

ganimni sinab ko'rmoqchi

bo'ldim. Elchixonasi vakili

Lyuy Yuy mendan ismimni,

qayerda o'qishim va nimalarga

qiziqishim haqida so'radi. Men

uning savollariga xitoy tilida javob

qaytardim. Shunda u o'z ona tilida bosh-

qa millat vakili bilan gaplashish naqadar

zavqli ekanligini, uning ham men tengi

o'g'li borligini, u ham til o'rganishga qiziqishini aytdi. Kelgusida tarjimon

bo'lish niyatida ekanligimni bildirganimda, u mamnun bo'lib menga omad

tiladi. Suhbatimiz so'ngida ular bilan birga esdalik uchun suratga tushdik.



**Madina SIROJIDDINOVA,**  
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-DIUM o'quvchisi

## DO'STLIK FORUMI

**Qadim Surxon vohasidagi muqaddas qadamjolarini ziyorat qilishni kim ham istamaydi, deysiz?! O'zbekiston va Afg'oniston ziyolilari tashabbusi bilan o'tkazilgan do'stlik forumi bunday sayr-u sayohatlarga boy bo'ldi.**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi, Termiz shahridagi 4-ixtisoslashtirilgan maktab-internati, Afg'oniston Maorif vazirligining Balx viloyati rayosati hamda Mozori-sharif shahridagi «Xoni Nur» xususiy maktabi hamkorligidagi mazkur do'stlik forumi «Jaholatga qarshi ma'rifat» shiori ostida o'tkazildi. Tadbir O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida dunyo hamjamiyatiga qilgan murojaatidagi ustuvor vazir-falar hamda Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan beshta tashabbus ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazildi.

Forum doirasida mehmonlar Al-Hakim at Termiziy maqbarasini ziyorat qilishdi, viloyat Arxeologiya muzeyi va kutubxonasiga tashrif buyurishdi, turli ijodiy uchrashuvlar guvohi bo'lishdi. 4-IMI da ham bo'lib, «Farzandinga kitob sovg'a qilaman» aksiyasini kuzatishdi. Buni qarangi, Angor tumanidagi 14-umumta'lim maktabining 70 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda mezonlarni qutlashga ham ulgurishdi. O'quvchi-yoshlarning yozgi ta'limni qanday o'tkazishayotgani bilan qiziqqan do'stlarimiz «Yoshlar markazi» qoshidagi to'garaklar faoliyati bilan tanishishdi, «Amudaryo sohili» bolalarni sog'lomlashtirish xalqaro oromgohiga ham tashrif buyurishdi. 12-Mehribonlik uyidagi bolajonlar bilan diydorlashdi. 4-IMI o'quvchilarining qiziqarli chiqishlaridan iborat ajoyib yopilish marosimi do'stlik forumiga yakun yasadi.

**Shohida ARIPOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 4-IMI direktori



## TO'GARAGIMIZGA MARHAMAT!

Men maktabimiz qoshidagi «Yosh adabiyotshunoslar» to'garagini boshqaraman. O'quvchilarim orasida adabiyotga, kitobxonlikka qiziqadiganlar, hatto o'zi ham ijod qiladiganlar talaygina. Shu bois ta'til kunlarida ham mashg'ulotlarimiz ko'payib, ishlarimiz qizigandan-qiziydi.

Bir kun she'rxonlik avjiga chiqsa, ertasiga kitobxonlik bellashuvini o'tkazamiz. Yosh qalamkashlarga zarur ijodiy muhit yaratib berishdan tolmaydigan maktabimiz direktori Yodgor aka Tashimov ba'zida ularning ijodlaridan bahramand bo'lishga ham fursat topadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Nigora Primqulova esa yosh adabiyotshunoslarni maktabimiz faxri deya, tumandagi turli ko'rik-tanlovlarga olib boradi. Bunga javoban izlanuvchan yosh qalamkashlardan biri – 7-sinf o'quvchisi Soliha Zoirxo'jayeva yaqindagina tumanimizdagi maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan she'rxonlik bellashuvida 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, ta'lim maskanimizda Shabbona Shahriddinova, Ayida Zayidbekova, Nurken Baymaxanov, Janibek Abdurahimov kabi iste'dodli o'quvchilar ham bor.

Yozgi ta'tilda kutubxona eshiklarini barvaqt ochib, bolalarni kitobxonlikka chorlayotgan kutubxonachi Roziya Ibragimovani hamisha yosh kitobxonlar qurshovida ko'rasiz. Matematika fani o'qituvchisi Qodir aka Salimov, ingliz tili fani muallimasi Kumush opa Aliqulova esa maktabimiz ustunlaridir.

Fursatdan foydalanib, men bolalar ijodkorlarini maktabimizga, xususan to'garagimizga taklif etaman. Zero, bunday uchrashuvlar yosh qalamkashlarga olam-olam zavq bag'ishlashi, shubhasiz!

Fotima MUMISHEVA,

Toshkent viloyati, Qibray tumanida-  
gi 47-umumta'lim maktabi  
o'qituvchisi

## «BOYCHECHAK»DA HAMMA JAM

Maktabimizda «Boychechak» deb nomlangan yozgi sog'lomlashtirish maydonchasi tashkil qilindi. Oromgohimizda 14 dan ortiq to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda.



Jumladan, shaxmat-shashka, voleybol, mini futbol, yosh rassom, qiziqarli kompyuter, «Birgalikda kuylaymiz», «Drama» va boshqa turli xil mashg'ulotlarda bolalar vaqtlarini chog' o'tkazishmoqda. 100 dan ortiq tarbiyalanuvchilar maydonchamizda «Yoz – o'tmoqda soz!» shiori ostida hordiq chiqarmoqdalar. O'quvchilarning yozni mazmunli o'kazishlariga beminnat hissa qo'shayotgan to'garak rahbarlari M.Ubaydullayeva, D.Djonmirzayeva, yoshlar yetakchisi Z.Majidova, tarbiyachilar B.Tursunova, N.Nazrullayeva hamda kutubxonachi K.Mamaraz-zoqovadan nafaqat o'qituvchilar, balki ularning ota-onalari ham behad minnatdor.

Hidayatxon NURMUHAMMEDOVA,

poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 186-umumta'lim maktabining  
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

## MILLIY BUYUMLARIMIZ JAHON BOZORIDA

**B**U YILGI YOZ  
OSHQACHA...

Ta'til davri mazza-da! Istaganingizda televizor ko'rasiz, kitob o'qiysiz yoki o'rtoqlaringiz bilan birga o'ynaysiz. Ammo uch oy mobaynida hunar o'rganib, birorta buyum yoki esdalik sovg'alarini o'z qo'lingiz bilan yasab, yaqinlaringiz ko'nglini olishga nima deysiz? Ayni muddao bo'lardi, deysizmi? Biz sizga hikoya qilmoqchi bo'layotgan tengdoshlaringiz ham hunar o'rganib, ham ta'til vaqtida o'tkaziladigan tanlovlarda faol qatnashishni oldilariga maqsad qilib qo'yishgan.

Keling, ular bilan yaqindan tanishamiz:

### YOSH IXTIROCHI

Bolaligidan turli konstruktorlardan bino, mashinalar yig'ishga qiziqqan Hasan yangi modellarni ixtiro qilishga qiziqib qoldi. Bu qiziqishi uni Samarqand shahridagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazining «Yosh konstruktor va ixtirochi» to'garagiga yetakladi. 42-umumta'lim maktabi o'quvchisi Hasan Akbarov bu yerda ham o'z iqtidorini namoyon qildi. To'garak rahbari bu qobiliyatli bolakayni o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan «Yosh konstruktor va ixtirochi» ko'rik-tanloviga olib borishni ko'ngliga tugib qo'yd.

– Men tanlovning respublika bosqichida o'zim ixtiro qilgan FVV mashinasi modeli bilan ishtirok etdim. Bu mashina odam o'tishi qiyin joylarda harakat qila oladi. Hay'at a'zolari tomonidan ijodiy ishim yuqori baholandi. Kelgusida bundan-da mukammalroq modellar ustida ishlashni orzu qilaman. Maqsadim – insonlarning og'irini yengil qiladigan robot modellari yasab, barchaning e'tirofiga sazovor bo'lish.



– Men milliy qo'g'irchoqlar yasashni, ularga ko'ylaklar, do'ppilar tikishni yaxshi ko'raman, – deydi 63-umumta'lim maktabi o'quvchisi Fariza Sadriddinova. Dugonam Gulshan bilan «Milliy qadriyatlar» festivalida qatnashish baxtiga muvassar bo'ldik. U yerdagi ko'rgazmaga qo'yilgan popop, zardo'zilarni, sopoldan ishlangan rang-barang buyumlarni bir ko'rsangiz edi. Gulshan Akbarova do'ppi-do'zlik bo'yicha, men esa milliy qo'g'irchoqlar yo'nalishida ishtirok etib, ustozlarimiz ishonchini oqladik.

Shahrimizga kelgan sayyohlarning milliy buyumlarimizga bo'lgan qiziqishlarini ko'rib, yanada ko'proq qo'g'irchoqlar yasashga kirishib ketaman. Orzum milliy ko'rinishdagi qo'g'irchoqlarimizni jahon bozoriga olib chiqish, – deydi iqtidorli qiz.

Samarqand shahar BABMda ayni damda 34 nomdagi to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, mashg'ulotlarga 2100 nafar o'quvchi-yoshlar jalb qilingan. Markaz direktori Nargiza opa Qobilovaning aytishicha, bu galgi yozgi ta'til o'quvchilarning xotirasida o'zgacha tarzda saqlanib qolar ekan.

Samarqandlik o'quvchilarning yozgi ta'til kunlari mazmunli, foydali o'tishiga biz ham umid qilamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



# YANGIYERDAGI SIRLI O'RMONDA BO'LGANMISIZ?

**Taroshlanmagan qayrag'ochlarning qattiq shamol, chang - to'zonlar bilan keladigan to'fonlarga dosh berib, mardonavor turishini his qilganmisiz?**

Qachonlardir cho'lda tashkullanib, bir amallab ko'kارتirib olingan bu qorong'u o'rmon endi qo'rqinchli emas. Tabiiylari ko'karguncha sun'iy gullar «ekilgan» asfalt yo'lakcha bizni o'rmon qo'ynidagi bolalar oromgohiga olib bordi. U yerda 300, 400 ta she'rni yod olgan olti yoshdan o'ttiz yoshgacha bo'lgan sirdaryolik o'g'il-qizlar orasida bahribayt musobaqasi bo'layotgan edi. Ishtirokchilarning yigirma nafardan ikki yonga tizilib bahsga kirishishi g'oyat go'zal manzara kasb et-

gandi! Viloyatning shahar va tumanlaridan saralangan adabiyot ixlosmandlari birinchilik uchun bellashdilar.

Qariyb uch soat davom etgan bellashuvda Yangiyer tumani yoshlari g'olib bo'ldilar. Sovg'a tariqasida tumanda kitob do'koni quriladigan va uch ming nusxa kitob sovg'a qilinadigan bo'ldi.

Kimdir bir-birini quchoqlab qutlayapti, kimdir pana-panada yig'layapti...

Nachora, musobaqa o'z nomi bilan musobaqa. Uning g'oliblari ham, mag'lublari ham bo'ladi. G'oliblar hammaning

guvohligida, haqqoniy tarzda aniqlandi.

Viloyat hokimi qurib beradigan kitob do'koni hamda Yoshlar ittifoqi tomonidan taqdim etiladigan uch ming dona kitob uchun va quvonch va alam ko'z yoshlari!

Bu xayrli tashabbusni mamlakat miqyosida om-malashtirish kerak.

Men qariyb yigirma besh yil mobaynida respublika televideniyesi orqali namoyish etilgan «O'yla, izla, top!» ko'rsatuvining hakamlari Xudoyberdi To'xtaboyev,

Qursiya Esonova safida ko'p she'r yodlab, xotirasini mustahkamlab borayotgan zukko bolalarni baholab borganman. Negadir bu ko'rsatuv namoyishi to'xtab qoldi.

Shu o'rinda bir fikr tug'iladi: sirdaryoliklar tashabbusini qo'llab, O'zbekiston televideniyesi orqali «Bahribayt» nomli ko'rsatuv tashkil qilinsa. Ayrim «uchar ijodkorlar» joyida she'r to'qib, vaziyatdan chiqib ketmasligi uchun (shundaylari ham bo'ladi!) musobaqani navbati bilan ma'lum bir shoir ijodiga bag'ishlab tashkillash kerak.

Bu ham bolalarni kitobga jalb qilish, xotirasini mustahkamlash uchun bir imkoniyatdir.

Siz nima deysiz, aziz gazetxon?

Darvoqe, Yangiyerda quriladigan kitob do'koniga bahribaytda g'olib chiqib, shu do'konning qurilishiga hissa qo'shgan adabiyot ixlosmandlarining suratlari ilib qo'yiladi!

Umida ABDUAZIMOVA,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

## Lesson 24

### REPORTED STATEMENT

**Direct statement:** Davron said «I am ill»

**Reported statement:** Davron said that he was sick.

We introduce reported statement with verbs such as «say» or «tell»

Both are possible:

She said that... (formal)

She said...

There are one or two things that we sometimes change, when we use our own words to report speech.

**Pronouns** may need to change to reflect a different perspective.

**Backshift** tense sometimes has to come back one tense.

**Time and place:** We may need to change time or place.

**Pronoun change**

e.g. He said «I am playing football».

He said (that) he was playing football.

**Tense change**

e.g. Sevara said «I was reading a story yesterday».

Sevara said (that) she had been reading a story.

**Place change**

e.g. He said «it is hot in here».

He said (that) it was hot in there.

Complete the sentences in reported speech.

1 Sardor said «I like swimming».

2 She said «I cannot drive a car»

3 «You should revise your lessons,» he said.

4 She said «I can swim really fast»




Muhammadsharif FAYZULLAYEV

### INTERESTING FACTS ABOUT WORLD CUP



**1 In 1966, the World Cup was in England. Thieves stole the Cup and tried to sell it. A dog found it under a tree.**

**2. The youngest player was Norman Whiteside from Northern Ireland. He was only 17 years and 41 days old when he played in the 1982 World Cup.**



**3. The first World Cup was in 1930, in Uruguay. In the final game Uruguay beat Argentina and became the first World Cup winners. 13 countries played in the first World Cup.**



**4. The first time people saw the World Cup on TV was in 1954 when Switzerland held the competition. Now about 3 billion people in Countries all over the world watch the World Cup.**

**5. Until 2002 the World Cup was always in a European or an American country. Korea and Japan held the first Asian world Cup. The first African World Cup was in 2010, in South Africa.**

**6. Brazil is the most successful World Cup team. They are the only team that has played in every tournament. So far they have won it five times. Germany and Italy have both won four times.**

Men sizlarga hikoya qilib bermoqchi bo'lgan voqealarning asosiy qahramonlariga qisqacha ta'rif berib o'tmoqchiman. «U kim, bu nima?» degan savollar va tanqidiy fikrlar menga yoqmasligi sabab, shunga qaror qildim. Yana boshqa sababi shundaki, voqealar qahramonlari real hayotdan olingan. Ikkinchi darajali qatnashchilarga ta'rif berilmadi. Chingachguk mustasno. Chunki uni hamma biladi.

Ra'no buvim - yoshlari ... da (ko'z tegmasin, deb yoshlarini yozmadim). Juda to'g'riso'z, biroz hazilga moyilligi bor, g'oyatda ko'rkam, tik qomatli, o'rta bo'yli, yuzlarida kulgichlari bor, qoshlari timqora, xushro'y ayol.

Onam - o'rta bo'yli, qop-qora, jingalak sochlari o'ziga yarashgan, qoshlariga o'sma qo'yishni yaxshi ko'radigan, biroz yangi kiyimga o'chligi bilan dadamdan malomat eshitib charchamaydigan, bug'doyrangli, yuzlari tiniq ... yoshdagi ayol.

Otam - baland bo'yli, tik qomatli, qo'llari temirday baquvvat, polvonlarga o'xshagan.

I BOB. BO'RILAR SARDORI TANISHUV

Assalomu alaykum, men uchun aziz va qadrdon tengdoshlarim! Ushbu hikoyani sizlarga juda qadimiy qishloqda, ya'ni To'raqishloqda yashovchi Jo'rabek yozmoqda. Kamina To'raqishloqdagi o'rta maktabning bilag'onlar sinfi (7-«B»)ni bitkazib, a'lochilar sinfi (8-«A»)ga o'tish ostonasida turibman. Ko'pgina fanlardan olgan a'lo baholarim adabiyot o'qituvchimiz Mirshodi akaning ta'бири bilan aytganda, «A'lochilar sinfi»ga o'tishimga imkon berarkan.

Aytganday, Siz hikoyam kechadigan To'raqishloq haqida eshitganmisiz? Eshitgansiz! Bilasiz! Axir siz geografiyani suv qilib ichib yuborgansiz-ku! Yo, gapim noto'g'rimi? «O'z qishlog'i tarixini bilmagan, tabiatini o'rganmagan, uni jondan sevmagan o'quvchiga mening darsimda o'rin yo'q», deydi geografiya va tarix fani o'qituvchimiz Shotursun aka. Mening qishlog'im! Jannatlarga teng ona diyorum. Bu yerdan ne-ne allomai zamonlar yetishib chiqqan. Dadamning aytishiga qaraganda, bundan taxminan qirq yilcha avval o'zbekning ajoyib shoiri Erkin Vohidov yon qo'shnimiz Donishqishloqqa o'tayotganlarida uyimizda to'xtab o'tgan ekanlar. Sababi, donishqishloqlik mashhur Matmusa mening tog'am bo'ladi. Ular otam bilan buvimdan tog'am haqida so'raganlari aniq. Gaplarimga unchalik ishonmadingiz, chog'i? Ishonmasangiz, kelib Matmusa tog'amdan so'ray qoling.

To'raqishlog'imiz tarixi undan oqib o'tgan daryoday uzun. Uning yoshi milodning boshlariga borib taqalishini juda ko'p olimlar yozib qoldirishgan. Eng ishonchli manba (Shotursun akaning gaplari) xitoylik tadqiqotchilar aka-uka Shun-Day bilan Xa-Xa-Shun-Dayning «To'raqishloq tarixi» (tarjimon Shotursun aka) kitobi hisoblansa-da, uyg'ur hamda hind olimi Solaman O'qining «Buyuk qishloq», o'zbek olimi Shotursun Shoyursinovning «Nima uchun To'raqishloq?» nomli kitoblari qishlog'imiz tarixini ochib beradi. Otam esa buni juda qisqa va mazmunli izohlaydi. Bu qishloqda qadimdan o'ziga to'q beklar, to'ralar yashagan. Ular juda savodli, ma'rifatlil va saxiy bo'lgan. Qishloqda shunday

yuzlaridagi sepkillari o'ziga yarashgan, oq-sariqdan kelgan, ko'zlari biroz qisqa, sochlari tipratikannikiga o'xshagan, o'rta bo'yli bola.

Normamat tog'a - yoshi saksonlarga borgan, baquvvat, oq-qora rangli soqoli dumaloq yuziga yarashgan, o'rta bo'yli, garmdorigulli do'ppisini qishda ham boshidan qo'ymaydigan, ovozi dag'al, biroz sergaproq chol.

Matmusa tog'am - baland bo'yli, savlatli, yuzlari qip-qizil, qora qoshli, bug'doyrangga moyil rangli, ... yoshdagi, qorin qo'ymagan, qishda ham, yozda ham bo'yniga bo'yinbog' taqib yurishni yaxshi ko'radigan kishi.

Aytishlaricha, bo'yinbog' madaniyat belgisi emish.

Gulposhsha kelinoyim - o'rta bo'yli, bug'doyrang ayol, ancha satang (buvinning iborasi). Yoshlarini bilmayman.

Tamtumboy IV - biroz maqtanchoq, soddaroq, o'rta bo'yli, yuziga husnbuzar toshgan, olifta kiyinadigan bola.

MEN, MATRAYIM VA TAMTUMBOY

odamlar ko'p bo'lgani uchun (Hikoya)

- Albatta-da!  
- Qoyilman!

Yana shuni aytishim mumkinki, bizning qishloq ... viloyatda joylashgan. Nuqtalar o'rniga viloyat nomini o'zingiz yozing. Tumanning nomini aytmayman. Chunki bu tuman ko'pgina viloyatlarda bor yoki yo'q. «Vot gde masala, ko'ndalang lejit», deydi adabiyot o'qituvchimiz Mirshodi aka bunday hollarda. Ustoz-da! Men ham ularning gapini shu sabab keltirdim, o'rni bo'lgani uchun.

- Nima qilamiz?  
- Nima qilardik, dushmanga qarshi jang qilamiz! Yo'q, kurashamiz.  
- Unday bo'lsa, men ham golf tayog'imni olib chiqaman...

Matrayimning golf tayog'i toldan yasalgan bo'lib, so'yilga o'xshardi. Kurashishga golfning nima aloqasi bor? Tushunmasam-da, men ham uyga chopdim. Nimadir olishim kerak-ku! Uyga kirdim-u nima olishimni bilmay qoldim. Chelak, o'roq, pan-shaxa, ketmon, teshla, belkurak ko'z oldimda aylana boshladi. Samovar karnay bilan otashkurakni aytmasam ham bo'laveradi. Samovar karnayni olsammikin?! Bo'rilar qulog'i tagida baqiraman, otashkurak bilan burnidan qisib olaman. Zo'r fikr. Endi shularni olmoqchi bo'lib turuvdim, ko'zim sichqon qopqonga tushdi. Iye, mana buni qurol desa bo'ladi. Qancha sichqonlarni zirillatgan. Ularga qarshi beomon kurashgan va hamisha g'olib bo'lgan qopqonim. Bormisan? Endi olmoqchi bo'lib turuvdim, boshim bexos akamning boks qo'lqopiga urildi. Urildi-yu, miyam shig'illaganancha ishlab ketdi. - Oh, shu paytda-ya... Nima qilishimni bilmay turgan joyimda ishtonbog'imni ushlab, sakray boshladim. Goho ilhom meni shu ko'ylga soladi. Bilmaganlar boshqacha fikrlyadi... «Bir, ikki, uch, bir, ikki, uch»... Bu holatni to'rtinchi marta takrorlaganimdan so'ng ayqashuyqash satrlar she'r shaklida miyamga quyila boshladi. Aytaman:

Tun chog'ida qishloqda,  
Itlar qoldi vovillab.  
Shum bo'rilar izg'ishib,  
Kelar edi uvillab.

Qo'y-qo'yilar qaltirab,  
Bazo'r ma'rab qolardi.  
Normat tog'a eshagi,  
To'xtab, hangrab olardi.

Qishloq ahli birlashib,  
Bir fikrga kelishdi.  
Och bo'rilar ustiga -  
Yurish qilmoq bo'lishdi.

(Davomi bor)

ONA

Udir menga oq sut bergan onam, Udir mudom boshda parvonam. Alla aytgan bedor kechalar, Mehribon, tenggi yo'q hamxonam.

Qo'rako'zim deya erkalar, Qora ko'zim fido uning chun. Hayo yo'llarida mash'alim, Meni onamdayin suyar kim?!

Sizni qancha ta'riflasam kam, Qancha ulug'lasam kam, ona. Siymongizda ming bir xislat jam, Shayman xizmat qilmoqqa yona.

Tamannoxon BEKPO'LATOVA, Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 23-umumta'lim maktabi o'quvchisi



AHILLIK

Agar ahil do'st bo'lsak, Bizni hech kim yengolmas. Bir tan, bir jon bo'lsak, Dushman yaqin kelolmas.

Agar ilmli bo'lsak, Ma'naviyat yashaydi. Ma'naviyati bor xalqning, Eli mangu yashaydi.

Shahrizoda ERKINOVA, Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## YIGITLARIMIZDA - KUMUSH, QIZLARIMIZDA - BRONZA!



Joriy yilning 1-7-iyun kunlari Rossiya ning Tolyatti shahrida bo'lib o'tgan gandbol bo'yicha yoshlar

va o'smirlar o'rtasidagi xalqaro turnirda Rossiyaning turli avtonom Respublikalari, viloyat va shaharlaridan tashrif buyurgan jamoalar, Ukraina, Qozog'iston, O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikalari sportchilari ishtirok etdi. Mazkur musobaqada O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi qatorida Andijon va Jizzax olimpiya zaxiralari maktab-internatlari tarbiyalanuvchilari mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qildi.

Yosh toifalari bo'yicha o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida aylana tizimda kechgan bahslar yakunida 2003-2004-yilda tug'ilgan sportchi yigitlarimiz kumush, qizlar bronza medalini qo'lga kiritishdi.

## MIROBODLIK KEKSALAR NEGA MAMNUN?

Prezidentimiz tomonidan olg'a surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida poytaxtimizning Mirobod tumandagi 1-Bolalar va o'smirlar sport maktabida armrestling sport turi bo'yicha 2003-2008-yillarda tug'ilgan kichik o'smirlar



o'rtasida Mirobod ochiq birinchiligi sport musobaqasi bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqada 25 nafar ishtirokchi qatnashdi. Bellashuv natijalariga ko'ra, sport maktabining 6 nafar sportchilari sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

«Sport - salomatlik garovi» shiori ostida tumanda joylashgan mahallalarda istiqomat qiluvchi 14-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida mini futbol, basketbol va voleybol sport turlari bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Bellashuvda 150 nafar sportchi ishtirok etgan bo'lsa, shundan 60 nafar qizlardir, - deydi sport maktabi direktor o'rinbosari R.Umarov. - Quvonarlisi, haftaning seshanba va payshanba kunlari sport maktabida 20 nafardan ortiq keksa yoshdagi mahalla fuqarolari ertalabki badantariya va futbol mashg'ulotlarida muntazam qatnashib kelmoqda. Bu esa ularning kuchiga kuch qo'shmoqda, kayfiyatlarini ko'tarmoqda. Bir so'z bilan aytganda, keksalarimiz juda mamnun.

**Futbolni millionlar o'ynaydi,  
milliardlar tomosha qiladi.**



# KELING, FUTBOL O'YNAYMIZ!

**19-iyun -  
Butunjahon  
bolalar futboli kuni**

**Bundan roppa-rosa bir asr muqaddam shakllana boshlagan, biroq ildizlari undan ham qadimroqqa borib taqaladigan, betakror sport turi futboldir! Shunchaki tezkor harakatlardan iborat bo'lgan bu o'yin ayni paytda chin ma'noda «Millionlar o'yini» maqomiga ko'tarilib ulgurdi.**

### FUTBOL TARIXIDAN

Birinchi jahon chempionati FIFA tomonidan 1930-yilda Urug'vay poytaxti Montevideo shahridagi «Estadio Sentenario» o'yingohida o'tkazilgan. Unda hozirgidek 32 jamoa emas, bor-yo'g'i 13 ta - Janubiy Amerika qit'asidan 7 ta, Yevropadan 4 ta va Shimoliy Amerikadan 2 ta mamlakat terma jamoalari qatnashishgan. Finalda mezbonlar Argentina futbolchilarini 93000 tomoshabin ko'z o'ngida 4:2 ga mag'lub etib, ilk jahon chempionati kubogini qo'lga kiritadi.

Jahon chempionati tarixidagi birinchi gol muallifi esa fransuz hujumchisi Lusiyan Luarent hisoblanadi.

\*\*\*

Millionlar o'yinining millioneri, «Misming g'aroyib bolasi» degan nomga ega bo'lgan omadli futbolchi Muhammad Salohni alohida e'tirof etish joiz. Muhammad Saloh 1992-yil 15-iyunda Misming Bisyoun shahrida tug'ilgan. U o'qituvchilik kasbida faoliyat yuritishiga qaramay, sportning futbol turiga ham befarq bo'lmagan. Ayniqsa, otasi o'g'li Muhammad Salohning to'p surishga qiziqishini payqagandan so'ng, futbolga e'tiborini kuchaytirgan. Muhammad Saloh bolaligidan iste'dodli futbolchi bo'lgan. U 2010-yilda Misming Premyer-liga yoshlar terma jamoasida o'z faoliyatini boshlagan.

2012-yil fevral oyidagi muvaffaqiyatli o'yinlari tufayli Shveysariyaning «Bazel» futbol klubi tarkibiga qabul qilingan.

\*\*\*

Futbol - xalqlarni birlashtiruvchi ko'prik. Dunyoning ko'pkarra chempioni, degan sharafli nomga sazovor bo'lgan braziliyalik futbolchilarning bir iborasi hali hamon mashhurligini yo'qotgan yo'q: «Maydon - tekis, to'p - yumaloq». Chindan ham, ajoyib manzaraning sehri, jozibasiga barcha birdek mahliyo bo'ladi. Mutaxassislarning futbolni keyingi 50 yildagi eng mashhur sport o'yinlaridan biri deb e'tirof etishi bejiz emas. Boisi, ayni kunda Yer shari aholisining to'rtidan bir qismi futbolning «dard-u quvonchlari» bilan yashamoqda.

**O'ZDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi  
Kamola MIRZAYOROVA tayyorladi**

## «YOSHLAR OYLI»DA VELOMARAFON

**Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan 5 ta muhim tashabbusning ijrosini ta'minlash va 30-iyun - Yoshlar kuni munosabati bilan «Yoshlar oyligi» doirasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatida ko'plab e'tiborli vazifalar bajarilmoqda.**

Termiz tumani hokimligi hamda tuman Kengashi hamkorligida tumandagi «Uchqizil» qo'rg'oni hududida qizlar o'rtasida «Velomarafon» musobaqasi tashkilashtirildi.

- Bu kabi musobaqalarni ko'proq amalga oshirish




orqali qizlar o'rtasida sportni ommalashtirishga erishilmoqda. Endilikda qizlarimiz sportning barcha yo'nalishlarida faol ishtirok etib kelmoqda, - deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi sport va salomatlik bo'limi mudiri A.Xolmirzayev.

Velomarafonda Sohiba Norqo'chqorova, Farida Qurbonova hamda Gulnora Rahmonovalar o'z yosh toifalari bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Surxondaryo viloyatining barcha tuman va shaharlarida joriy o'nyning 29-sanasisiga qadar «Yoshlar oyligi» munosabati bilan sport bayramlari o'tkazilishi rejalashtirilgan.

**Nurbek QIDIRALIYEV**

# TA'TIL ZAVQI



**Maktabimizda «Barkamol avlod» nomli oromgoh ochildi. 1-4-sinflarning 100 nafarga yaqin o'quvchilari ertalab soat sakkizda oromgohga kelishadi. Sakkiz yarimda musiqa fani o'qituvchisi Bo'ston Boltaboyev boshchiligidagi jismoniy tarbiya mashqlarini bajarishadi.**



Nonushtadan so'ng o'zlari qiziqqan to'garak mashg'ulotlarga jalb qilinadilar. Mahmud Narziqulov kutubxonachi Shahnoza To'rayevaning yoniga shoshadi. Chunki u kitob o'qishni yaxshi ko'radi. Mahmud oromgohda o'tkazadigan o'n kuni davomida «Besh bolali yigitcha», «Gulliverning sayohati» kabi kitoblarni o'qib chiqishga bel bog'lagan. Shaxmat-shahka o'yinida esa Ozodbek Salimov, Mohinur Hamdamovanning oldiga tushadigan yo'q. Farida Hamidova, Feruza Abdujamilova kabi o'quvchilar Sitara Imomqulova boshqaradigan «Yosh musavvirlar» to'garagining faol a'zolaridir. Mahliyo Fattohova matematika

fani bilimdoni bo'lsa, Gulshoda Gadoyevaning husnixatiga hamma havas qiladi.

Yumshoq o'yinchoqlar yasash Dinora Olegovaning sevimli mashg'uloti. U tikkan ayiqcha, tulki va quyon barchaga manzur bo'ldi.

Biz yaqinda «Tulki va Qarg'a» nomli rus xalq ertagini sahnalashtirdik. Malika Shodmonovanning nutqi ravon, talaffuzi tiniq bo'lgani uchun muallif bo'ldi. Umid Mirzayev – Tulki, Dilfuza Shodmonova – Qarg'a timsolini xuddi haqiqiy aktyorlarday ijro etib, barchaning olqishiga sazovor bo'lishdi. Ahrorjon Ne'matov, Nozima Usmonova, Shoista Bekmurodova kabi ustozlar ham sport, matema-

tika, informatika to'garaklarini boshqarib, bolajonlarning ta'til kunlarini mazmunli, foydali o'tishiga o'z hissalarini qo'shishyapti. Oromgohda turli sport musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'quvchilarning xohish-istaklariga binoan o'tkazilyapti. Musobaqa g'oliblari diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishyapti. Bir so'z bilan aytganda, yozgi ta'til, maktab qo'ynidagi oromgoh bolalarga iqtidorlarini yuzaga chiqarishlari uchun zo'r imkoniyat bo'lyapti.

**Lobar ISMOILOVA,**

**Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

### «TOSH»LI NOMLAR – TOPSHIRIQLAR

Quyida ta'riflari bayon etilgan so'zlar shakldagi «Tosh» so'zi bilan boshlanadi.

1. Farg'ona viloyati tumani. 2. Suv oqimidan ro'y beruvchi talofat. 3. Poytaxt shahar. 4. Eng uzoq umr ko'ruvchi jonivor. 5. Qazilma yoqilg'i turi. 6. Namangan tumanidagi shaharcha. 7. Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi gaz koni. 8. Xivada XIX asrning birinchi yarmida bunyod etilgan me'moriy yodgorlik. 9. Turkmanis-

ton tarkibidagi viloyat. 10. Estrada xonandasi, O'zbekiston xalq artisti. 11. Ayrim turlari manzarali, respublikamiz tog'larining salqin joylarida o'suvchi ildizpoyali ko'p yillik g'iyoh. 12. Tropik va qirg'oqchil mintaqalarda o'suvchi, po'stlog'idan oshlovchi modda olinadigan tanasi qattiq daraxt. 13. O'zbekistonda eng katta hisoblanuvchi grafit koni. 14. Afg'onistonning Samangan viloyatidagi shahar. 15. O'zbek sirkining shakllanishi va milliy dorbozlik san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan ustoz san'atkor, sulola boshlovchisi. 16. Biolog-biofizik olim, akademik, biologiya fanlari doktori, atoqli adib Oybekning o'g'li.

**Topshiriq:** Shaklning o'ng tomonidagi raqamlar juftini (birinchisi – so'z, ikkinchisi – harf tartibini anglatadi) javoblardagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqni hal eting. Bunda ulardan bo'lyga yo'nalishida o'qish bilan poyasi, barglari shifobaxsh, adirlarda o'suvchi g'iyoh va qadimiy xalq hunarmandchiligi turini bilib olasiz.

|    |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    |      |    |       |
|----|---------|--|--|--|--|--|--|--|--|--|----|----|----|----|----|------|----|-------|
| 1  | T O S H |  |  |  |  |  |  |  |  |  | ** | ** | ** | ** | ** | **   | ** |       |
| 2  |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 3/7  | ** | 10/6  |
| 3  |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 9/5  | ** | 16/11 |
| 4  |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 2/3  | ** | 5/1   |
| 5  |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 4/4  | ** | 1/1   |
| 6  |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 10/5 | ** | 15/5  |
| 7  |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 14/4 | ** | 14/6  |
| 8  |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 11/7 | ** | 6/7   |
| 9  |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 12/9 | ** | 7/3   |
| 10 |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 11/5 | ** | 1/4   |
| 11 |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | 8/7  | ** | 2/5   |
| 12 |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | **   | ** | 5/4   |
| 13 |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | **   | ** | **    |
| 14 |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | **   | ** | **    |
| 15 |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | **   | ** | **    |
| 16 |         |  |  |  |  |  |  |  |  |  |    |    |    |    |    | **   | ** | **    |

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

8

17-iyun 2019

**Tong yulduzi**  
Muassis:  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruza ADILOVA  
Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAYATI:**  
Qahramon QURONBOYEV, Dilshod KENJAYEV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Sayyora QODIROVA, Nigora ABDUNAZAROVA  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. [www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz) e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz) telegram: [t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz) Adadi – 12621 Buyurtma – V 3511

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti – 18:00 Topshirildi – 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08